

CHET TILI O'QITISHDA PEDAGOGLARNING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLAYDIGAN TAMOILLARNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.

O'zDJTU katta o'qituvchisi
F. S.Tashpulatova

Annotasiya: Taqdim etilayotgan maqola chet tili o'qitishda pedagoglarning ta'lim jarayonida qollaydigan tamoillarning nazariy va amaliy asoslari o'qitish metodi o'qitishning shakllari, interfaol o'qitish metodlari qo'llangan vaziyatlar, o'qitishning ilg'or tajribalarini o'rganish mutaxassislik uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan, shunigdek tarjimonlarni maxsus ilmiy metodik adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish va ilmiy ishlarga tayyorlashdan iboratdir.

Kalit so'zlar: Metod, pedagog, interfaol, mutaxassis, tamoil, nutq, modellashtirish, innovatsi, modifikatsiya, debat.

Аннотация: В статье представлены теоретические и практические основы педагогических принципов, которые остаются в процессе обучения преподавателей по методике преподавания иностранного языка, ситуаций с использованием интерактивных методов обучения и необходимости изучения передового опыта. навыки и умения, а также обучение переводчиков работе со специализированной научно-методической литературой и подготовке их к научной работе.

Ключевые слова: Метод, педагог, интерактивный, специалист, направление, речь, моделирование, инновация, модификация, дебат.

Annotation: The article presents the theoretical and practical foundations of pedagogical principles that remain in the process of teaching teachers on the methodology of teaching a foreign language, situations using interactive teaching methods and the need to study best practices. skills and abilities, as well as training interpreters to work with specialized scientific and methodological literature and preparing them for scientific work.

Key words: Method, pedagog, interactive, specialist, direction, speech, modeling, innovation, modification, debate

Ma'lumki o'qitish metodi bu maqsadga erishish uchun pedagog tanlaydigan yo'ldir. o'qitishning ikki xil shakli bor: bu pedagogga moslashgan va interfaol o'qitish shakllaridir. Pedagogga moslashgan o'qitish shaklida asosiy ahamiyat tayyorlangan pedagogga qaratiladi. Bu vaziyatda asosiy vazifani dars olib borayotgan pedagog bajarishi kerak. Interfaol o'qitish metodlari qo'llangan vaziyatda esa har bir mavzu

nafaqat pedagog tomonidan, balki talaba tomonidan yoki faqatgina talabalarning kuchi bilan (pedagogning yordamisiz) tayyorlanadi.[1]

Interfaol o'qitish metodlari va bu o'qitish metodlariga treninglar orqali erishish mumkin. Bu treninglar kattalar pedagogikasi (androgogika)ning eng yangi prinsiplari asoslangan bo'lib, o'z ichiga olgandir. Interfaol o'qitish metodlarida ongli ravishda talaba shaxsi o'z xususiyatlari va ko'nikmalari bilan markazga qo'yilgandir, interfaol o'qitish metodlari yordamida ishtrokchi ongli ravishda muammolarni yechish va mustaqil qaror qabul qilishga ko'nikma hosil qiladi.[2]

Chet tili o'qitish metodikasining nazariy asosi o'z oldigaquyidagi vazifalarni qoyadi:

Hozirgi davr chet tili o'qitish metodikasining asosiy qisimlarini yoritish va uning asosida talabalarga ta'lim berish;

Talabalarga (xususan, bo'lajak tarjimonlarga) chet tili o'rgatishning ilg'or g'oyalari bilan tanishtirish;

Hozirgi davr metodikasining tarkibiy qismi, vaziyatlarini yoritish;
o'qitishning ilg'or tajribalarini o'rganish;

Seminar, amaliy mashg'ulotlar orqali mutaxassislik uchun zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

Bo'lajak tarjimonlarni maxsus ilmiy metodik adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish orqali o'z kasbi ustida mustaqil shug'illanishga, ilmiy ishlarga tayyorlash.

Chet tili o'qitishning sof metodik prinsiplari 3 ga bo'linadi

1. Umumiy; 2) xususiy; 3) maxsus;

Umumiy tamoyillarga:

1. Chet tili o'qitishning nutqiy yo'nalganlik tamoyili.
2. Chet tilini chegaralab (farqlab) va yaxlit o'rgatish tamoyili.
3. mashg'ilotlarga asosiy o'rin berish tamoyili.
4. til tajribasini hisobga olish tamoyili.

Yuqorida izohlangan tamoyillar xususiy tamoyillar bilan mazmunan tutashgan bo'lib, torroq ma'nodagi metodik hodisalarni aks ettirishdan iboratdir. Xususiy tamoyillar quyidagilardir:

- 1) nutq namunasi asosida chet tilini o'rgatish
- 2) til mashqlarini nutq amaliyoti bilan bog'lash
- 3) nutq faoliyati turlarining o'zaro munosabati
- 4) o'zaki nutqning ilgarilishi
- 5) chet tilida tabiiy nutqda yaqinlashish.

Innovatsiya lotincha so'z bo'lib, "yangilik kiritaman", "tatbiq etaman", "o'zgartiraman" degan ma'noni anglatadi.

- 1) modellashtirish
- 2) namoyish qilish

- 3) kichik guruhlarda ishlash
- 4) aqliy hujum
- 5) tanqidiy hujum
- 6) munozara-tortishuv, bahs
- 7) rolli o'yinlar
- 8) muayyan holatni (vaziyatni) o'rganish
- 9) modifikatsiyalangan ma'ruza
- 10) o'yinlar
- 11) axborot texnologiyalari (kompyuter) yordamida.

Ispan tili ta'limi jarayonida o'qitishning innovatsion usullaridan foydalana bilish va amalga oshirish muhim hisoblanib, pedagog quyidagilarni bilishi lozim:

innovatsion texnologiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyati;

ta'lim maqsadini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarining o'rni va roli;

fanlar bo'yicha innovatsion texnologiyalarni qo'llash tamoyillari;

ta'limiy va ishchanlik o'rinlari va muammoli rivojlantiruvchi ta'lim metodlar;

talabalarning mustaqil faoliyatlarini tashkil va ta'minlash yo'llari;

talabalarning mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullari; ko'rgazmali o'qitish usullari imitatsiya o'quv mashg'ulotlari; ta'lim tarbiya faollashtiruvchi usullardan iborat.[3] Olib borilgan izlanishlar asosida shuni aytish mumkinki, tarjimonlar tayyorlashda bir qancha metodlar, usullar mavjud. Ular:

Modellashtirish (trenirovka-mashq qilish). o'qitishning bu usuli real hayotni qayta tiklash ishlab chiqilgan moslama, asbob yoki vaziyatni o'z ichiga oladi.

Demonstratsiya (namoyisg qilish)- "Ko'rsataman isbotlayman" degan ma'noni anglatadi. Bu usulda pedagog topshiriqni bajarish tartibini talabalarga ko'rsatadi. Shundan so'ng talabalarga topshiriqni mustaqil bajarish imkoniyati berilishi kerak.

Rolli o'yinlar. Talabalar bu usulda "real hayot" holatlarini qayta jonlantiradilar. Ularga amaliy ish faoliyatlarida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko'rish va tekshirish mukun.

Guruh munozarasi. o'qitishning mazkur usuli talabalarning o'zaro muloqot va fikr almashinuviga asoslangan. Bunda guruhga tahlil qilish, baholash va tekshirish asosida muayyan mavzu yoki savollar ishlab chiqiladi.

Modifikatsiyalangan-shakli o'zgartirilgan ma'ruza. Bu o'qitish usuli pedagog mavzu mazmunini og'zaki bayon qiladi, formulalar chiqarishda talabalar bilan muloqot olib boradi. Ammo bu usulning an'anaviy ma'ruzadan farqi pedagog va talaba orasida muloqot borligidadir.

Tanqidiy tafakkur. Tanqidiy tafakkur usuli pedagog qo'ygan masala yokimuammoga talaba o'z fikrini bayon qilish, o'zgar fikrini tanqidiy qayta idrok

etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish orqali yechish yoki hal qilish imkoniyatiga ega bo'lishiga asoslangandir.

Muayyan holatni (vaziyatni) o'rganish. Bu o'qitish usuli real hayotdagi vaziyatni batafsil muhokama qilishdan iborat. Mazkur usul kichik guruhlarda o'tkizilib, o'qish, o'rganish, tahlil qilish muhokama va erkin fikr almashish hamda qaror qabul qilish va bu qarorni boshqalarga yetkazishni taqozo qiladi.[4]

Aqliy hujum pedagog qo'ygan savol yoki muammo yuzasidan har bir talabaning o'z fikrini bayon etishiga imkon beruvchi o'quv uslubidir. Uslub mohiyati "Bir kalla yaxshi, yigirma beshtasi undan yaxshi" tamoyili bo'yicha pedagog tomonidan belgilangan muammo yoki savol yuzasidan ehtimol tutiladigan hamma fikrlar variantini bir yerga jamlay olishda bo'lib, istisno tariqasida ta'lim oluvchilarning barcha fikrlari, jumladan, aytarli, to'g'ri bo'lmaganlari ham inobatga olinadi. Bayon etilgan fikrlar keyingi tahlilda talabalarning qo'yilgan savol yoki muammoni to'g'ri tushunishlariga imkon beradi.[5]

Har kim har kimga o'rgatadi. "Har kim har kimga" uslubi talabalarni o'rgatuvchiga aylanishi, ma'lum bilimlarni o'zlashtirgach, o'rtoqlari bilan baham ko'rish imkonini beruvchi o'qitish uslubidir. Ushbu uslubning maqsadi talabalarga o'qitish jarayonida zarur bo'lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda talabada axborot olish va berishga qiziqish uyg'otishdir. Shuningdek, axborot hajmini olgan talaba ma'lum vaqt davomida uni iloji boricha ko'proq o'rtoqlariga yetkazadi.

Debatlar (tortishuvlar). Debatlar o'z nuqtayi nazarini asoslashda auditoriyadagi barcha talabalarning (yoki asosiy qismining) bahslashuvda faol ishtirok etishini ta'minlovchi o'qitish uslubidnazarini aytadi, bahsli topshiriqlar beradi. Bu uslubdan foydalanish tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. Talaba o'z nuqtayi nazarini rad etishi kerak. Bahs haqiqatni yuzaga keltirgani bois pedagog talabalarni ikki guruhga bo'lgan holda munozarani atayin avj oldiradi (guruhlarga bir biriga zid nuqtayi) bu usul yozma holda olib borilsa, yozma debatlar bo'ladi.

Xulosa qilib aytish lozimki, o'yinli metodlar soni bular bilan chegaralanmaydi. Aksincha, bugungi kunda nazariyotchilar amaliyotchilarning izlanishlari va sa'yi harakatlari bilan ularning soni sifati tobora takomillashib bormoqda

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sultanova G.A. Pedagogik mahorat. Toshkent : Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
2. Interfaol medodlar:mohiyati va qo'llanilishi. Met qol. D. Rozieva. M. Usmonboeva, Z.Holiqova. T. Nizomiy nomli TDPU
3. "Чет тили (испан тили) Ўқитиш методикаси ва унинг асосий босқичлари" Таълим, фан ва инновация 70 - 75 бетлар 2020 йил Ф.С.Ташпулатова
4. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Toshkent.:OPI, 2003.
5. Ravshanova, T.; Karshieva, R.; and Kuvvatov, M. The theoretical and practical basis of role games in teaching foreign languages // Mental Enlightenment ScientificMethodological Journal: Vol. 2022: Iss. 3, Article 2.